



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 178 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbanovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	



TALABALARNI O'QUVCHILARNING TIBBIY TASHXISIGA MOS PEDAGOGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISHGA O'RGATISH USULLARI

Yuldashova Iroda Dilshodovna

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi, CHDPU mustaqil
izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak maxsus pedagoglarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada tashxisga mos pedagogik yondashuvni tanlash mantiqining nazariy asosi – tibbiy-psixologik tashxisni pedagogik amaliy tilga "tarjima qilish" jarayoni ochib berilgan. Talabalarni o'qitishning kognitiv-dagnostik, amaliy-loyihalash, simulyatsion-klinik, rolli o'yin hamda nazorat-refleksiya bosqichlaridan iborat izchil metodikasi taklif etilgan. Shuningdek, kognitiv xaritalash, rangli differentsiatsiya kartalari, video tahlil hamda assistiv texnologiyalar bilan amaliy tanishuv kabi didaktik vositalar tavsiflangan.

Kalit so'zlar: maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim, tibbiy tashxis, pedagogik yondashuv, differensial ta'lim, korreksion pedagogika, kasbiy tayyorgarlik, individual ta'lim dasturi.

Abstract: This article scientifically examines methods for preparing future special educators to apply pedagogical approaches that correspond to students' medical diagnoses. It explains the theoretical foundation for selecting an appropriate pedagogical approach by describing the process of translating a medical-psychological diagnosis into the language of pedagogical practice. A structured methodology for training students is proposed, consisting of cognitive-diagnostic, practice-oriented design, simulation-clinical, role-playing, and reflection-based assessment stages. In addition, the article describes didactic tools such as cognitive mapping, colour-coded differentiation cards, video analysis, and practical familiarisation with assistive technologies.

Key words: special pedagogy, inclusive education, medical diagnosis, pedagogical approach, differentiated instruction, correctional pedagogy, professional training, individual educational programme.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения освещены методы подготовки будущих специальных педагогов к использованию педагогических подходов, соответствующих медицинскому диагнозу обучающихся. Раскрывается теоретическая основа логики выбора педагогического подхода в соответствии с диагнозом – процесс "перевода" медико-психологического диагноза на язык педагогической практики. Предложена последовательная методика подготовки студентов, включающая когнитивно-диагностический, практико-проектный, симуляционно-клинический, ролевой игровой и контрольно-рефлексивный этапы. Кроме того, описаны такие дидактические средства, как когнитивное картирование, цветовые дифференциационные карты, видеоанализ и практическое ознакомление с ассистивными технологиями.

Ключевые слова: специальная педагогика, инклюзивное образование, медицинский диагноз, педагогический подход, дифференцированное обучение, коррекционная педагогика, профессиональная подготовка, индивидуальная образовательная программа.

KIRISH

Maxsus va inklyuziv ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi bo'lajak pedagogning kasbiy mahoratini belgilovchi asosiy mezonlardan biri – uning har bir bolaning tibbiy-psixologik tashxisiga mos ravishda pedagogik yondashuvni tanlay olish qobiliyatidir. Bitta nozologik guruhga kiruvchi bolalarning o'zida ham individual farqlar mavjudligi, shuningdek, bir bolada bir nechta nozologiyaning birgalikda uchrashi (kompleks nuqson) bo'lajak mutaxassisdan qat'iy shablon asosida emas, balki tashxisga asoslangan differensial fikrlash asosida ish yuritishni talab qiladi. Shu bois oliy ta'lim jarayonida talabalarni tashxisga mos pedagogik yondashuvlarni tanlash va qo'llashga o'rgatishning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tashxisga mos pedagogik yondashuvni shakllantirish jarayoni ikki bosqichli mantiqiy zanjirga tayanadi.

Birinchi bosqichda talaba bolaning tibbiy-psixologik tashxisi (masalan, diqqat tanqisligi va giperfaollik sindromi, autizm spektri buzilishi, disleksiya, disgrafiya, eshitish yoki ko'rish nuqsoni, harakat-tayanch tizimi buzilishi) ortida yotgan psixofiziologik mexanizmni tushunishi kerak.

Ikkinchi bosqichda esa ushbu mexanizmga mos keluvchi, ya'ni bolaning saqlanib qolgan (kompensator) imkoniyatlariga tayanuvchi va uning to'siqli funksiyalarini yumshatuvchi pedagogik vositalarni tanlashi lozim. Boshqacha aytganda, o'qituvchi "bola nimadan aziyat chekmoqda?" degan savoldan "bolani qanday o'qitish kerak?" degan savolga ilmiy asoslangan holda o'ta olishi zarur. Bunday o'tish mexanik yodlash orqali emas, balki tizimli klinik-pedagogik tahlil ko'nikmasi orqali shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim tizimida o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlarni tanlash pedagogning eng muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi.

L. S. Vygotskiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda biologik nuqsonning o'zidan ko'ra, uning ta'lim va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, har bir bolaning individual imkoniyatlariga mos tashkil etilgan pedagogik yordam uning rivojlanish salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois tibbiy tashxisni faqat klinik ma'lumot sifatida emas, balki ta'lim jarayonini individuallashtirish uchun zarur pedagogik axborot manbai sifatida talqin qilish lozim. Maxsus pedagoglarni tayyorlash metodikasiga oid xalqaro tadqiqotlarda ham diagnostik ma'lumotlarni pedagogik qarorlarga transformatsiya qilish alohida kompetensiya sifatida e'tirof etiladi.

D. Mitchell maxsus ta'lim samaradorligi tashxisning o'ziga emas, balki aynan tashxis asosida tanlangan o'qitish strategiyalarining mosligiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

C. Florian tomonidan ishlab chiqilgan Inclusive Pedagogy konsepsiyasi barcha o'quvchilar uchun yagona ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bir qatorda, individual ehtiyojlarga mos differensial yondashuvlarni qo'llash zarurligini asoslaydi.

Rossiya defektologiya maktabi vakillari L. M. Shchipitsina, I. Yu. Levchenko, T. V. Volosovets va E. A. Strebleva tadqiqotlarida ham bo'lajak defektologlarni klinik-pedagogik kompetensiyalar asosida tayyorlash zarurligi ko'rsatib berilgan. Ularning fikricha, pedagog tibbiy tashxisni chuqur bilishi emas, balki tashxisning ta'lim jarayoniga ta'sirini to'g'ri tahlil qila olishi hamda mos pedagogik texnologiyalarni tanlay bilishi muhim hisoblanadi.

O'zbekiston olimlari L. R. Mo'minova, P. M. Po'latova, D. A. Nurkeldiyeva va Sh. M. Mirziyoyeva ishlarida ham maxsus pedagoglarni amaliy faoliyatga yo'naltirilgan holda tayyorlash, differensial va individual yondashuvlarni shakllantirish hamda klinik-pedagogik integratsiyani kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilgan.

Mazkur ilmiy qarashlarga tayangan holda bo'lajak maxsus pedagoglarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlarni tanlash va qo'llashga tayyorlash tizimli hamda amaliy yo'naltirilgan metodikani talab etadi. Ushbu metodika nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga asoslanib, talabalarda tibbiy tashxisni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish, individual ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish va ularni real ta'lim jarayonida qo'llash kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Metodika beshta o'zaro bog'liq bosqichni qamrab oladi: kognitiv-diaagnostik, amaliy-loyihalash, simulyatsion-klinik, rolli o'yin va keys-stadi hamda nazorat-refleksiya bosqichlari.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak maxsus pedagoglarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlarni tanlash va qo'llashga tayyorlash tizimli hamda amaliy yo'naltirilgan metodikani talab etadi. Mazkur metodika nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga asoslanib, talabalarda tibbiy tashxisni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish, individual ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish va ularni real ta'lim jarayonida qo'llash kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodika beshta o'zaro bog'liq bosqichni qamrab oladi: kognitiv-diaagnostik, amaliy-loyihalash, simulyatsion-klinik, rolli o'yin va keys-stadi hamda nazorat-refleksiya bosqichlari.

Metodikaning birinchi – kognitiv-diaagnostik bosqichi talabalarni tibbiy hujjatlar mazmunini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishga o'rgatishga qaratilgan. Ushbu bosqichda talabalar psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (PTPK) xulosalari, epikrizlar va boshqa diagnostik hujjatlar bilan ishlashni o'rganadilar. Asosiy maqsad tibbiy terminologiyani pedagogik amaliyot uchun zarur bo'lgan ta'limiy tavsiyalarga aylantirish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Masalan, tibbiy xulosada qayd etilgan "diqqatning beqarorligi va tez charchash"



holati talaba tomonidan darsni qisqa mikrobloklarga ajratish, faoliyat turlarini tez-tez almashtirish hamda muntazam dam olish daqiqalarini tashkil etish zarurati sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, "ko'rish o'tkirligining pasayishi" tashxisi yirik shriftli materiallardan foydalanish, kontrast ranglarni tanlash va taktil vositalarni qo'llash zaruratini anglatishi tushuntiriladi. Bu bosqichda qiyosiy jadvallar, diagnostik kartochkalar, vaziyatli topshiriqlar hamda muammoli savollar asosida ishlash talabalarga tashxis va pedagogik qarorlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga yordam beradi.

Ikkinchi – amaliy-loyihalash bosqichi talabalarning tashxisga mos individual ta'lim materiallarini ishlab chiqish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarga shartli o'quvchi profillari taqdim etilib, ular mavjud o'quv materiallarini mazkur profilga mos ravishda qayta loyihalashtiradilar. Masalan, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun og'zaki tushuntirish vizual infografika, subtitrlar yoki piktogrammalar bilan boyitiladi, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun esa grafik ma'lumotlar batafsil og'zaki tavsif shaklida ifodalanadi. Shuningdek, diqqat yetishmovchiligi yoki tez charchash kuzatiladigan o'quvchilar uchun murakkab topshiriqlar kichik bosqichlarga ajratilib, har bir bosqich yakunida qisqa rag'batlantirish va refleksiya tashkil etiladi. Disgrafiya yoki yozma nutqdagi qiyinchiliklari mavjud o'quvchilar uchun bilimlarni og'zaki javob, amaliy topshiriq, loyiha yoki test orqali baholashning muqobil shakllari ishlab chiqiladi. Mazkur bosqich talabalarda moslashtirilgan o'quv materiallarini yaratish hamda differensial ta'limni rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Uchinchi – simulyatsion-klinik bosqich nazariy bilimlarni real pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan. Dastlab talabalar maxsus tashkil etilgan simulyatsion vaziyatlarda turli tashxisli o'quvchilar bilan ishlashni mashq qiladilar, keyinchalik esa maxsus maktablar, inklyuziv ta'lim muassasalari va shifoxona maktablarida amaliyot o'taydilar. Simulyatsiya texnologiyasi talabalarga xavfsiz pedagogik muhitda turli vaziyatlarni sinab ko'rish, xatolarini tahlil qilish hamda samarali yondashuvlarni takomillashtirish imkonini beradi. Har bir mashg'ulot yakunida talabalar refleksiv tahlil olib borib, qo'llangan metodlarning samaradorligini, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni hamda ularni bartaraf etish yo'llarini tashxis xususiyatlari bilan bog'liq holda asoslaydilar. Bunday tahlil pedagogik qarorlarning ilmiy asoslanganligini kuchaytiradi va kasbiy refleksiyani rivojlantiradi.

To'rtinchi – rolli o'yin va keys-stadi texnologiyasi talabalarning murakkab pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kichik guruhlarda tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar turli tashxisga ega o'quvchilar ishtirok etgan sinf vaziyatlarini modelashtiradilar. Guruh a'zolaridan biri o'qituvchi rolini, boshqalari esa turli ehtiyojli o'quvchilar rolini bajaradi. O'qituvchi rolidagi talaba bir vaqtning o'zida bir nechta tashxisga ega o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda differensial topshiriqlarni ishlab chiqishi va taqdim etishi talab etiladi. Keys-stadi texnologiyasi esa real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoning sabablarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi. Ushbu bosqich talabalarda moslashuvchan fikrlash, tezkor pedagogik qaror qabul qilish hamda kompleks yondashuvni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Metodikaning yakuniy – nazorat-refleksiya bosqichi talabalar tomonidan shakllantirilgan kompetensiyalarni baholash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu bosqichda talabalar o'zlari ishlab chiqqan moslashtirilgan dars ishlanmalari, didaktik materiallar va individual ta'lim rejaları bilan o'zaro almashadilar hamda ularni oldindan belgilangan mezonlar asosida ekspertiza qiladilar. Baholash mezonlari materialning tashxisga mosligi, pedagogik maqsadga muvofiqligi, amaliy qo'llash imkoniyati, o'quvchini ortiqcha charchatmasligi, differensial yondashuvning to'g'ri tanlanganligi hamda kutilayotgan natijalarni ta'minlash darajasini o'z ichiga oladi. O'zaro ekspertiza va refleksiya jarayoni talabalarni nafaqat o'z faoliyatini tanqidiy baholashga, balki hamkasblarining tajribasidan samarali foydalanishga ham o'rgatadi. Natijada ularda tahliliy fikrlash, kasbiy refleksiya hamda pedagogik qarorlarni ilmiy asoslash kompetensiyalari izchil rivojlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini turli tibbiy tashxisga ega o'quvchilar bilan samarali ishlashga tayyorlash jarayonida didaktik vositalardan maqsadli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Biologiya fani o'zining ko'rgazmaliligi, tajribaviy faoliyatga yo'naltirilganligi hamda murakkab ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishni talab qilishi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Shu sababli biologiya o'qituvchisi nafaqat fanga oid metodik kompetensiyaga, balki o'quvchilarning tibbiy tashxisidan kelib chiqib ta'lim jarayonini moslashtirish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy didaktik vositalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shunday vositalardan biri kognitiv xaritalash (Mind Mapping) texnologiyasidir. Ushbu vosita yordamida talabalar biologiya fanining muayyan mavzularini o'qitishda o'quvchining kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan tomonlarini tizimli ravishda tahlil qilishni o'rganadilar. Masalan, "Odam organizmi va sezgi organlari" mavzusini rejalashtirishda ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun taktil modellar va audio tavsiflardan, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun esa vizual sxemalar,



infografikalar hamda subtitrlı videolardan foydalanish zarurligi xaritada aks ettiriladi. Bunday yondashuv talabalarni tashxisni faqat cheklov sifatida emas, balki saqlanib qolgan funksiyalar va kompensator imkoniyatlarga tayangan holda ta'limni tashkil etish vositasi sifatida qabul qilishga o'rgatadi.

Biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda rangli differensial kartalar ham muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ushbu kartalar orqali turli nozologik guruhlariga mos pedagogik tavsiyalar ranglar yordamida tizimlashtiriladi. Masalan, yashil rang vizual ko'makka ehtiyoj sezadigan o'quvchilar uchun, ko'k rang eshitish orqali axborotni yaxshi qabul qiluvchi o'quvchilar uchun, sariq rang taktil va kinestetik faoliyat ustuvor bo'lgan o'quvchilar uchun, qizil rang esa qo'shimcha pedagogik yordam talab qiladigan holatlar uchun belgilanadi. Talabalar biologiya darsining har bir bosqichini ana shu rangli kartalar asosida tahlil qilib, laboratoriya mashg'ulotlari, tajribalar, mikroskop bilan ishlash yoki biologik obyektlarni kuzatish jarayonida qaysi didaktik vositalar va metodlar muayyan tashxisga ega o'quvchilar uchun samaraliroq bo'lishini tezkor aniqlashni o'rganadilar. Muhim vositalardan yana biri video tahlil va debriefing texnologiyasidir. Ushbu texnologiya asosida talabalar biologiya darslarining real yoki simulyatsion videoyozuvlarini kuzatib, o'qituvchining harakatlarini tashxisga mos pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qiladilar. Tahlil davomida biologik tajribalarni tashkil etish, xavfsizlik qoidalarini tushuntirish, laboratoriya jihozlaridan foydalanish, differensial topshiriqlarni berish hamda o'quvchilarni baholash jarayonlari muhokama qilinadi. Mashg'ulot yakunida debriefing o'tkazilib, talabalar qo'llangan metodlarning afzalliklari, kamchiliklari va ularni takomillashtirish imkoniyatlarini ilmiy asosda muhokama qiladilar. Bunday refleksiv faoliyat biologiya o'qituvchisining pedagogik kuzatuvchanligi va tahliliy fikrlashini rivojlantiradi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda assistiv texnologiyalar bilan amaliy tanishuv ham alohida o'rin tutadi. Talabalar Brayl displeylari, ekran o'quvchi dasturlari (screen readers), elektron kattalashtirgichlar, subtitrlı videolar, muqobil va augmentativ kommunikatsiya vositalari, raqamli mikroskoplar hamda interaktiv biologik modellar bilan ishlashni amaliy mashg'ulotlar orqali o'zlashtiradilar. Masalan, ko'zi ojiz o'quvchilar uchun uch o'lchamli taktil hujayra modeli yoki inson skeleti maketi, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun subtitr va animatsiyalar bilan boyitilgan biologik videolar, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun esa virtual laboratoriyalar va raqamli tajriba platformalaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Bu jarayon talabalarga har bir assistiv texnologiyaning qaysi tashxis turiga mos kelishini amaliy faoliyat orqali anglash imkonini beradi. Didaktik vositalardan kompleks foydalanish natijasida bo'lajak biologiya o'qituvchilarida biologiya fanini inklyuziv ta'lim sharoitida samarali tashkil etish bo'yicha zarur kasbiy kompetensiyalar shakllanadi. Talabalar biologik mazmundagi o'quv materiallarini individual ehtiyojlarga moslashtirish, laboratoriya mashg'ulotlarini xavfsiz va inklyuziv tarzda tashkil etish, differensial baholash usullarini tanlash hamda assistiv texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tibbiy tashxisga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga tayyorlashga qaratilgan mazkur metodikani amaliyotga joriy etish natijasida ularda bir qator muhim kasbiy kompetensiyalar shakllanishi kutiladi. Avvalo, talabalar psixologik-tibbiy-pedagogik xulosa va boshqa diagnostik hujjatlarni mustaqil tahlil qilish, ulardagi tibbiy ma'lumotlarni biologiya fanini o'qitish jarayoniga mos pedagogik tavsiyalarga aylantirish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Natijada ular o'quvchining tashxisini faqat tibbiy tavsif sifatida emas, balki ta'lim jarayonini individuallashtirish uchun muhim axborot manbai sifatida talqin qilishni o'rganadilar.

Shuningdek, talabalar biologiya fanining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini turli tashxisga ega o'quvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqib loyihalash malakasini egallaydilar. Xususan, laboratoriya ishlari, biologik tajribalar, kuzatishlar va loyiha faoliyatini differensial tashkil etish, o'quv materiallarini moslashtirish hamda baholashning muqobil shakllarini qo'llash kompetensiyalari rivojlanadi. Bu esa biologiya fani mazmunining barcha o'quvchilar tomonidan teng imkoniyatlar asosida o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Mazkur metodika bo'lajak biologiya o'qituvchilarida nostandart pedagogik vaziyatlarda tezkor va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ular biologiya darslarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos metod va texnologiyalarni tanlash hamda zarur hollarda assistiv vositalardan samarali foydalanish malakasiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, refleksiv faoliyat orqali o'z pedagogik qarorlarini tanqidiy baholash, ularning samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish ko'nikmalari shakllanadi.

XULOSA

Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish – bu yakka mavzu emas, balki kognitiv-diagnostik, amaliy-loyihalash, simulyatsion-klinik va refleksiv-baholash bosqichlarini o'z ichiga olgan izchil metodik tizimdir. Ushbu tizimning samaradorligi talabaning nazariy tibbiy-psixologik bilimini amaliy pedagogik harakatga aylantiruvchi doimiy mashq va refleksiya jarayoniga bog'liq. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu metodikaning turli nozologiya guruhlari bo'yicha samaradorligini empirik tekshirish (pedagogik eksperiment) dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Safarova, R. G., & Yo'ldosheva, I. D. (2023). Pedagoglarning kasbiy inklyuziv kompetentligini takomillashtirish. *Science and Innovation International Scientific Journal*, 2(12), 343-346. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10365033>
2. Yo'ldosheva, I. D. (2025). Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining inklyuziv kompetentligini rivojlantirishning nazariy tahlili. A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti "Maxsus ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar" Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari, 22-24.
3. Rahimov, A. Q., & Yo'ldosheva, I. D. (2024). Inklyuziv ta'lim tushunchasi va inklyuziv ta'limni joriy etishda zaruriy shart-sharoitlar. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Gospital pedagogika sohasidagi dolzarb masalalar, ilg'or tajribalar va istiqbollar" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 43-49.
4. Abdurasulov, J. (2024). Harbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. *Yosh olimlar*, 2(6), 48-52. <https://inacademy.uz/index.php/yo/article/view/28164>
5. Mitchell, D. (2014). *What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-Based Teaching Strategies* (2nd ed.). London: Routledge.
6. Florian, L. (Ed.). (2014). *The SAGE Handbook of Special Education* (2nd ed.). London: SAGE Publications Ltd.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.